

Buxoro viloyatida

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026- yil yanvar - iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Buxoro viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026 - yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 21 665,2 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 21 157,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 418,8 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 88,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026 - yilning yanvar- iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (2 796,6 mlrd so'm), Romitan (2 721,0 mlrd so'm), Peshku (2 307,6 mlrd so'm), Buxoro (2 198,8 mlrd so'm), G'ijduvon (2 064,1 mlrd so'm) va Qorako'l (2 033,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (244,6 mlrd so'm), Buxoro shahar (292,7 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (726,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	21 665,2	104,3
Buxoro shahar.	292,7	115,2
Kogon shahar	244,6	116,9
Olot tumani	1 448,6	103,3
Buxoro tumani	2 198,8	103,5
Vobkent tumani	1 506,9	103,6
G'ijduvon tumani	2 064,1	101,1
Kogon tumani	1 486,0	101,2
Qorako'l tumani	2 033,4	102,4
Qorovulbozor tumani	726,2	100,7
Peshku tumani	2 307,6	106,7
Romitan tumani	2 721,0	109,0
Jondor tumani	2 796,6	102,7
Shofirkon tumani	1 838,7	106,4

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (116,9 %), Buxoro shahar (115,2 %), Romitan (109,0 %), Peshku (106,7 %) va Shofirkon (106,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Qorovulbozor (100,7 %), G'ijduvon (101,1 %), Kogon (101,2 %), Qorako'l (102,4 %), Jondor (102,7 %), Olot (103,3 %), Buxoro (103,5 %) va Vobkent (103,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026 - yilning yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 20 698,0 mlrd so'mni yoki 2025 yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 6 545,5 mlrd so'mni (104,0 %), chorvachilik mahsulotlari 14 152,5 mlrd so'mni (102,7 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (2 687,3 mlrd so'm), Romitan (2 660,4 mlrd so'm), Peshku (2 219,9 mlrd so'm) va Buxoro (2 132,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (239,0 mlrd so'm), Buxoro shahar (277,2 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (693,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (118,5 %), Buxoro shahar (114,7 %) va Romitan (108,3 %) tumanlarida qayd etildi. G'ijduvon (99,5 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Kogon (100,5 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,5 % i fermer xo'jaliklariga, 6,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Romitan (1 967,1 mlrd so'm), Jondor (1 815,8 mlrd so'm), Peshku (1 590,9 mlrd so'm), Buxoro (1 539,6 mlrd so'm) va G'ijduvon (1 440,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Buxoro shahar (150,8 mlrd so'm), Kogon shahar (152,3 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (407,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (125,9 %), Kogon shahar (116,7 %), Peshku (109,7 %), Romitan (108,1 %) va Qorovulbozor (106,3 %) tumanlarida qayd etildi. G'ijduvon (95,7 %), Olot (98,8 %), Qorako'l (98,8 %), Kogon (99,8 %), Vobkent (101,2 %), Buxoro (101,7 %), Shofirkon (102,0 %) va Jondor (102,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 130,6 ming tonna go'sht, 475,9 ming tonna sut, 277,3 mln dona tuxum, 2 102,8 tonna qirqib olingan jun, 259,6 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 2,9 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, sog'ib olingan sut – 100,8 % ni, olingan tuxum – 110,1 % ni, qirqib olingan jun – 102,8 % ni, olingan qorako'l teri – 102,4 % ni hamda ovlangan baliqlar – 117,6 % ni tashkil qildi.

2026 - yil yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,4 % i fermer xo'jaliklari, 89,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2026 - yil yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2026 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	130,6	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,3	110,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	110,0	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,3	109,1
Sut, ming tonna	475,7	100,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	40,0	115,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	427,9	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,8	99,0
Tuxum, mln. dona	277,3	110,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	54,7	108,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	132,1	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	90,5	128,8
Jun, tonna	2 102,8	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	432,2	118,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 487,8	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	182,8	92,0
Qorako'l teri, ming dona	259,6	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	54,1	110,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	176,3	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,2	99,0
Baliq, tonna	2 919,3	117,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 003,6	121,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	284,3	99,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 631,3	119,1

Shu bilan birga, olingan tuxumning 19,7 % i fermer xo'jaliklariga, 47,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Shuningdek, qirqib olingan junning 20,6 % i fermer xo'jaliklari, 70,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 8,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 20,8 % i fermer xo'jaliklariga, 67,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 34,4 % i fermer xo'jaliklariga, 9,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 55,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Go'sht (tirik vaznda), tonna</i>	<i>Sut, tonna</i>	<i>Tuxum, ming dona</i>
Buxoro viloyati	130 603,0	475 863,1	277 318,8
Buxoro shahar.	1 994,8	2 807,7	2 699,7
Kogon shahar	2 154,0	360,7	7 084,4
Olot tumani	8 501,7	40 937,6	12 910,0
Buxoro tumani	15 425,9	58 388,2	27 294,8
Vobkent tumani	8 872,1	42 961,0	13 296,8
G'ijduvon tumani	13 288,9	44 242,8	22 948,8
Kogon tumani	11 506,0	19 054,6	43 928,8
Qorako'l tumani	14 558,9	40 462,5	28 396,0
Qorovulbozor tumani	2 938,5	9 085,6	5 870,2
Peshku tumani	10 751,0	55 924,8	20 152,3
Romitan tumani	13 108,1	51 779,7	20 527,5
Jondor tumani	16 121,9	57 586,1	57 851,2
Shofirkon tumani	11 381,2	52 271,9	14 358,2

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (871,5 mlrd so'm), Romitan (693,4 mlrd so'm), Peshku (629,1 mlrd so'm), Shofirkon (625,0 mlrd so'm) va Buxoro (593,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (86,7 mlrd so'm), Buxoro shahar (126,4 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (286,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (120,7 %), Shofirkon (110,1 %), G'ijduvon (109,7 %), Romitan (108,9 %), Olot (106,9 %), Buxoro shahar (105,7 %), Qorako'l (105,0 %), Vobkent (104,7 %) va Buxoro (104,2 %) tumanlarida qayd etildi. Qorovulbozor (92,7 %), Peshku (96,4 %), Jondor (99,7 %) va Kogon (102,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 465,4 ming tonna don, 243,6 ming tonna kartoshka, 225,8 tonna sabzavot, 36,7 tonna poliz, 243,3 tonna meva rezavorlar va 28,5 ming tonna uzum yetishtirilgan.

Hisobot davrida yetishtirilgan don hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni, kartoshka – 121,6 % ni, jami sabzavotlar – 104,1 % ni, oziqbob poliz – 109,9 % ni, meva va rezavorlar – 101,1 % ni hamda uzum – 100,1 % ni tashkil qildi.

2026 - yil yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan donning umumiy hajmidan 86,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 2,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda yetishtirilgan kartoshkaning 11,6 % i fermer xo'jaliklari, 86,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, yetishtirilgan sabzavotlarning 16,4 % i fermer xo'jaliklariga, 77,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, yetishtirilgan polizning 48,9 % i fermer xo'jaliklari, 49,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, yetishtirilgan meva va rezavorlarning 30,2 % i fermer xo'jaliklariga, 67,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, yetishtirilgan uzumning 11,9 % i fermer xo'jaliklariga, 87,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



**2026 - yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy
turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	Yanvar-dekabr 2026 y.	O'sish sur'ati % da
Jami don, ming tonna	465,4	105,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	401,1	106,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10,8	126,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	53,5	94,0
Kartoshka, ming tonna	243,6	121,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	28,4	112,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	210,4	123,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,8	104,0
Sabzavotlar jami, ming tonna	225,8	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	37,1	111,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	174,7	107,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,0	65,9
Poliz, ming tonna	36,7	109,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,0	114,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	18,1	105,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,6	146,5
Meva va rezavorlar, ming tonna	243,3	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	73,4	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	165,2	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,7	115,5
Uzum, ming tonna	28,5	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,4	106,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	25,0	99,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	118,1



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Jami don, tonna</i>	<i>Sabzavotlar, tonna</i>	<i>Meva va rezavorlar, tonna</i>
Buxoro viloyati	465 446,7	225 832,9	243 287,4
Buxoro shahar.	3 193,8	6 308,3	4 606,9
Kogon shahar	1 294,3	7 009,0	425,5
Olot tumani	32 819,6	5 727,4	17 064,9
Buxoro tumani	37 346,7	21 690,1	23 325,2
Vobkent tumani	48 633,5	18 700,8	22 088,9
G'ijduvon tumani	33 816,6	20 331,1	24 715,4
Kogon tumani	28 676,4	47 870,6	6 738,9
Qorako'l tumani	40 116,6	8 380,0	22 358,9
Qorovulbozor tumani	42 467,1	11 869,2	2 083,0
Peshku tumani	38 565,5	22 322,5	26 861,1
Romitan tumani	45 558,1	21 352,0	25 113,2
Jondor tumani	72 947,9	14 816,5	39 961,6
Shofirkon tumani	40 010,5	19 455,5	27 944,1



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Kartoshka, tonna</i>	<i>Poliz, tonna</i>	<i>Uzum, tonna</i>
Buxoro viloyati	243 631,5	36 725,7	28 510,8
Buxoro shahar.	4 511,0	373,2	3 077,9
Kogon shahar	8 252,1	388,1	63,0
Olot tumani	19 845,6	3 186,3	14 089,0
Buxoro tumani	20 261,2	2 136,8	4 912,9
Vobkent tumani	18 607,4	1 843,0	281,5
G'ijduvon tumani	25 401,6	1 555,6	112,8
Kogon tumani	1 202,0	38,2	46,7
Qorako'l tumani	44 276,5	1 660,7	45,0
Qorovulbozor tumani	2 611,5	10 561,5	39,6
Peshku tumani	20 740,8	2 851,1	4 450,2
Romitan tumani	28 780,8	1 729,1	71,9
Jondor tumani	24 824,8	8 281,9	779,3
Shofirkon tumani	24 316,3	2 120,4	541,2

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026 - yilning 1- iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 176,8 ming boshga yetdi, (2025- yilning 1- iyul holatiga nisbatan 1,3 % ga ko'p), sigirlar 389,3 ming boshga (1,1 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 475,5 ming boshga (0,5 % ga ko'p), parrandalar 8 208,2 ming boshga (4,8 % ga ko'p) yetdi.

2026 - yilning 1- iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 176,8	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	130,3	109,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 011,3	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	35,2	105,5
shundan sigirlar	389,3	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	45,2	108,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	332,4	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,7	103,5
Qo'y va echkilar	2 475,5	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	475,3	105,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 757,9	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	242,3	93,7
Otlar	13,0	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,5	107,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6,9	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,6	99,1
Parrandalar	8 208,2	104,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 030,4	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 241,7	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 936,1	108,1

2026 - yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 11,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 11,6 % i fermer xo'jaliklariga, 85,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarining umumiy sonidan 19,2 % i fermer xo'jaliklariga, 71,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 24,7 % i fermer xo'jaliklariga, 27,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026 - yilning 1- iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni, (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Buxoro viloyati	1 176,8	2 475,5	8 208,2
Buxoro shahar.	8,0	22,5	134,0
Kogon shahar	2,0	4,9	376,2
Olot tumani	101,8	214,6	246,9
Buxoro tumani	116,2	196,5	968,4
Vobkent tumani	91,5	105,8	455,6
G'ijduvon tumani	125,6	283,0	923,2
Kogon tumani	68,2	86,7	895,6
Qorako'l tumani	142,4	301,9	418,7
Qorovulbozor tumani	22,9	148,2	246,6
Peshku tumani	121,6	269,3	274,9
Romitan tumani	124,2	228,6	848,4
Jondor tumani	130,1	381,0	2 106,6
Shofirkon tumani	122,3	232,5	313,1

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Shodiyev
65 505-80-00 (81-10)
